

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'SMIRLARNI IJTIMOIY HAYOTGA IJOBIY
MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH**

Rajabova Nargiza Ahmadovna

A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti katta o'qituvchisi

Rahmonova Farangiz Furqatovna

Buxoro innovatsiyalar Universiteti magistranti

Annotatsiya: *xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish, ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmini yanada takomillashtirish, kasb-hunarga yo'naltirishning ilg'or tajribalarga asoslangan zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish, inklyuziv ta'limni joriy etish, rivojlantirish hamda bolalar, ota-onalar, pedagog xodimlar va jamoatchilikni ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash orqali bolalar uchun xavfsiz inklyuziv o'quv muhitini yaratish ko'zda tutilgan.*

Kalit so'zlar: *maktab ta'limi, inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiylashish, tajriba sinov, kasbga yo'naltirish.*

Inklyuziv ta'lim haqida so'z yuritilganda , uning asl mohiyatini nimaga qaratilayotgani haqida so'z boradi. O'zi „Inklyuziv ta'lim” nima? „Inklyuziv ta'lim” bu (inglez tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion-uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq,qamrab olish ma'nolarini bildiradi). Nogiron va sog'lom bolalar o'rtaqidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati chelangan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar 31 ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobi, Alisher Navoiy, Abdulla Abdulla Avloniyarning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv ta'lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida „inklyuziv” yoki „integratsion”ta'lim atamalari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta'lim bu-diqqat markazida bolaning aynan mактабга kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning mактабга qatnash jarayonidir. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari: Inklyuziv ta'lim tizimida qo'yidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi: - ta'lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixolo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish; - o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash; - jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ixtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; - imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oiladan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish; - jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir. Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari. 1) Inklyuziv ta'limning Ta'lim tizimini joriy etish har

doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishini talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi: 32 2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili. 3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili. 4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili. 5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili. 6) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. 7) Malakaviylik tamoyili.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'limni to'g'ri tashkil etish va imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish va o'z o'zini boshqarishi, boqa olishi, jamiyatga foyda keltira oladigan qilib tarbiyalash uchun mamlakatimizda qanday ishlarni amalga oshirish zarur?

Bolalar uchun xavfsiz inklyuziv o'quv muhitini yaratish bo'yicha Markazda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Ayni vaqtida Markaz tomonidan "Inklyuziv ta'lim laboratoriysi"ning Nizomi hamda inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, pedagog xodimlarning malaka oshirish kurslari uchun "Inklyuziv ta'lim" o'quv modulini yaratish va amaliyotga tatbiq etish, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlarida tashkil etiladigan "Bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash markazi" negizida inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilishi talab etiladi.

Korreksiyalovchi (kamchiliklarini tuzatish) ta'lim mazmunini o'quvchilarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda individual bo'lishini ta'minlash orqali har bir o'quvchi inklyuziv ta'lim sharoitida erkin his qiladigan darajaga yetkazilishi zarur. Buning uchun ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha pedagog xodimlar, tarbiyachilar oldiga yagona talab qo'yildi. Bunda o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga ya'ni oilada, mahallada, jamoat joylarida, umuman olganda hayotda qo'llaniladigan shaxslararo munosabatlardagi barcha kommunikativ ko'nikma va malakalar berilishini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Inklyuziv ta'limga o'tishda maktab va undagi sinf xonalariga alohida talablar qo'yildi. Chunki barcha umumiyl o'rta ta'lim makteblari sog'lom bolalarni ta'lim olishiga mo'ljallangan. Shuning uchun harakati cheklangan, zaif ko'ruchchi, ko'zi ojiz, kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus qurilmalar, moslamalar, darslik va o'quv materiallari, jihozlar bo'lishi talab etilishi zarur.

Inklyuziv sinflarda umumta'lim makteblarining barcha o'qituvchilari faoliyat olib boradi, faqat sinfdagi imkoniyati cheklangan bolalar bilan maxsus ta'lim mutaxassislari (surdopedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog) maxsus o'qituvchi sifatida hamkorlikda ish olib boradi. Inklyuziv ta'lim umumta'lim dasturlari asosida har bir yo'nalishdagi (ko'rishdagi, eshitishdagi, aqliy faoliyatida muammosi mavjud) bolalarga yo'naltirilgan, moslashtirilgan o'quv dasturlari asosida individual yondashuv orqali o'qitilishi kerak.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, imkoniyati cheklangan bolalar tug'ilishining oldini olish murakkab, sababi, bu jarayon ko'pincha irsiy hisoblanadi. Mamlakatimizda sog'lom bolalar tug'ilishi uchun ona va bola salomatligiga katta e'tibor qaratilyapti. Shunday bo'lsada imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish va ijtimoiylashtirish uchun makteblarga katta e'tibor qaratilyapti. Brayl yozuvidagi darsliklarni chiqarish va

takomillashrish, kasb-hunarga o'rgatish uchun qulay sharoitlarni yaratish, nogironlik aravachalarida oson harakatlanish uchun yo'laklarni barpo etish, darslarni o'zlashtirish uchun alohida tarbiyachi o'qituvchilarni biriktirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „Ta’lim hamma uchun” Milliy dasturi rejasi Toshkent-2003
2. „Maktablar hamma uchun”- „ Bolalarni qutqaring jamg’armasi”-2002
3. „Ta’lim hamma uchun”- Dakar deklaratsiyasi-2002
4. „Ta’lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari” mavzusidagi ilmiy –amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005
- 7.Rajabova N.A. The modern context of education quality management in the higher education system in Uzbekistan // Journal of Advansed Scientific (ISSN: 0976-9595)Vol.3.Issue 2 page 4 // Impactfactorsearch 8.4
5. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta’lim (Xalqaro va O’zbekistonidagi tajribalar) Toshkent-2011
6. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)